

Maktabgacha yoshidagi bolalarning fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda o'yining ahamiyati.

*Berdiyorova Nilufar Berdiyor qizi
Xalqaro Nordik Universiteti o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiyatini shakllantirishning muhim davr ekanligi, pedagogik faoliyatda o'yining ahamiyati va muvofaqiyatlari, bolalarning shaxsini, aqliy-axloqiy va irodaviy fazilatlarini shakllantirishda pedagogning o'rni, o'yin turlari, mashxurlarning fikrlari, ta'lif sifatini oshirishda o'yinnig afzallikkleri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: maktabgacha yosh, fikrlash qobiliyati, o'yin, ta'lif, pedagogika, ijodiy tafakkur, diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash, muammo yechish, salohiyat, kamolot, kompetensiya, faollik, mahorat, kompetentlik, intellektual-salohiyat, kommunikativlik, ijtimoiylashuv, estetik tarbiya

ANNOTATION: The article presents information about the importance and success of play in the formation of the personality of preschool children, the role of the educator in the formation of the personality, intellectual, moral and volitional qualities of children, types of play, opinions of celebrities, and the advantages of play in improving the quality of education.

KEYWORDS: preschool age, thinking ability, play, education, pedagogy, creative thinking, attention, memory, logical thinking, problem solving, ability, maturity, competence, activity, skill, competence, intellectual-ability, communicativeness, socialization, aesthetic education

АННОТАЦИЯ: В статье представлена информация о значении и успешности игры в формировании личности детей дошкольного возраста, роли воспитателя в формировании личности, интеллектуальных и морально-

волевых качеств детей, видах игр, мнениях известных людей, преимуществах игры в повышении качества образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: дошкольный возраст, мыслительная способность, игра, образование, педагогика, творческое мышление, внимание, память, логическое мышление, решение проблем. способность, зрелость, компетентность, активность, умение, компетентность, интеллектуальные способности, коммуникабельность, социализация, эстетическое воспитание

KIRISH: Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoni o‘yin orqali idrok etadi va bu jarayon ularning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. O‘yinlar bolalar tafakkurini shakllantirish, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini oshirish uchun eng samarali vositalardan biridir. Zamонавиy pedagogika fanida o‘yin ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi, chunki aynan shu faoliyat turi bolalarga yangi bilimlarni egallah, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, atrof-muhitni anglash va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishga yordam beradi. O‘yinlar orqali bolalar sabab-oqibat munosabatlarini o‘rganadi, kuzatish, solishtirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘yinlarning tutgan o‘rni, ularning ta’lim jarayonidagi samaradorligi hamda pedagoglar va ota-onalarning bu boradagi vazifalari keng yoritiladi.

ASOSIY QISM: Maktabgacha ta’lim uyg,un rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda juda muhim ahamiyatga ega bo’lgan muassasadir. O‘yin maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo’lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O‘yin bolaning o’quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanganligimi belgilab beradi. O‘yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy,axloqiy, mehnat va estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Jamiyatning ma“naviy takomillashuvi unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog’liqdir. Shu boisdan ham ta’limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma-bosqich ta’lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samaradorli kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keladi. Haqiqatdan ham o’yin, har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o,,rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o’yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o’zgarib turadi. O’yin doimo o’zgarib turganligi tufayli bola o’ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga, kishilarga, narsalarga va o’ziga bo’lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o’zgarib turadigan o’yin jarayonida namoyon bo’ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatları hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o’yin jarayonida bevosita rivojlanadi. O’yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o’yin jarayonida faqat namoyon bo’libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o,,zlashtiriladi. Shuning uchun psixologik nuqtai nazardan oqilona, ya’ni, to’g’ri tashkil qilingan o,,yin bola shaxsini har tomonlama o’stradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida – sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi. O’yin o’z mohiyati jihatidan katta kishilarning xatti-harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo’lishi tufayli bolalarda ma’naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob-axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o’yin jarayonida shifokorlik yoki o’qituvchilik rolini bajarayotgan bo’lsa, shu kasbga tegishli barcha sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o’yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo’ladi. Bolalar uchun o’yin mazmunining hech bir chegarasi yo’q. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o’z o’yinlarida aks ettira oladilar. O’yinning ahamiyati bola shaxsining o’sib kamolotga yetishiga ta’sir ko’rsatishdin iboratdir. O’yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak

atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga, o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (havas)lari bevosita o,,yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufayli narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma"qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqt o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy faoliyati bo,,lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muammolardan biridir. Bola psixikasining taraqqiy etishida o'yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o'yin faoliyatisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o'yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O'yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, balki nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga, xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o'rganadi. Ko,,pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. Bolalik inson hayotining eng muhim bosqichlaridan biridir. Ayniqsa, maktabgacha yoshda bolaning dunyoqarashi, tafakkuri, mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatları shakllana boshlaydi. Ushbu jarayonda o'yin alohida ahamiyatga ega bo'lib, bola ongingin rivojlanishi va bilish qobiliyatlarini faollashtirishda muhim vosita hisoblanadi. O'yin orqali bola nafaqat atrof-muhitni o'rganadi, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'yin bolaning tabiiy ehtiyoji bo'lib, u orqali atrof-muhitni anglash va tushunish jarayoni amalga oshadi. Farzandlar o'yin davomida muammolarni hal qilish, hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va fikrlash jarayonlarini faollashtirishga harakat qiladilar. Masalan, konstruktor bilan

o‘ynayotgan bola qaysi detal qayerga mos kelishini tushunishga intiladi, turli bloklarni birlashtirish orqali oddiy mantiqiy muammolarni hal qiladi. Bu esa uning tafakkurini rivojlantirishga katta yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha hayotda uchraydigan holatlarni o‘yin orqali aks ettiradilar. Masalan, “shifokor va bemor”, “o‘qituvchi va o‘quvchi” kabi o‘yinlar orqali ular turli kasblarni o‘rganadilar va o‘zlarini o‘sha rollarda sinab ko‘radilar. Bu esa bola tasavvurini kengaytirib, uni ijodkorlikka undaydi. Shuningdek, bu turdagи o‘yinlar muloqot qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Didaktik o‘yinlarning roli Bolalar uchun jismoniy faollik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli o‘yinlar, masalan, sakrash, yugurish, to‘p o‘yinlari bolaning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki tafakkuriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki bunday o‘yinlar davomida bola qoidalarni tushunib, ularni eslab qolishga harakat qiladi. Bu esa uning eslab qolish, tahlil qilish va oldindan natijani bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi

Didaktik o‘yinlar bolaning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Masalan, “nima qayerda yashaydi?”, “qaysi rang?” kabi o‘yinlar orqali bola atrof-muhit haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi. Matematika elementlari kiritilgan o‘yinlar esa sonlarni o‘rganishga, sanashga va mantiqiy fikrlashga yordam beradi. O‘yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o’rmon, metro, temir yo, l vagoni bo’lishi mumkin. Bola hech qachon jim o‘ynamaydi, bitta o’zi o‘ynasa ham u o‘yinchoq bilan gaplashadi, o’zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o’rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma-hammaning o’rniga o’zi gapiaveradi. So’z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq o‘yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o’z his-tuyg’u, kechilmalarini o’rtoqlashadi. So’z bolalar o’rtasida do’stona munosabatlar o’rnatilishiga, tevarakatrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo’lishga yordam beradi. Bolalarning o’zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yining g’oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari, rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu

rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri etarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to'g'rilik, o'zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi o'ziga xos mактабдир. O'yinda bola kishilarning axloqodob me'yorlarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Tarbiyachi bolalar o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o,,z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'рганадилар.

XULOSA: Xulosa o'rnida aytish kerakki, mактабгача yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limi mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Mактабгача tarbiya yoshi davridagi ta'limi mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof muhitdagi narsa va hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, og'zaki nutqni lug'at boyligi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, grammatik tomondan to'g'ri so'zlashlikka o'rgatish, bog'lanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega bo'lish, jismoniy tarbiya, tasviriy san'at, qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilish materiallar bilan ishslash, musiqa va boshqa mazmundagi mashg'ulotlarga qaratilgan bo'ladi, bu esa bolani aqliy jihatdan mакtab ta'lmini egallashga tayyorlash imkonini beradi Mактабгача yoshdagi bolalar uchun o'yin shunchaki mashg'ulot emas, balki fikrlash va tafakkurni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. O'yin orqali bola atrof-muhitni o'рганади, muammolarni hal qilishni o'рганади va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bois, ota-onalar va tarbiyachilar bolalar uchun to'g'ri va foydali o'yin muhitini yaratishlari lozim.

Chunki bola dunyoni o‘yin orqali kashf etadi va shu yo‘l bilan hayotga tayyorgarlik ko‘radi.

Foydalanilgan dabiyotlar ro‘yxati

1. Lutfullaeva, N., & Istamov, E. (2022). Organizational Structure for the Establishment of Health Oriented Behavior Among Employees of the Organization. International Journal of Social Science Research and Review, 5(8), 88-101.
2. Axmedova, N. (2024). Sadriddin Pachchoev-so ‘nggi buxorolik miniatyurachi-musavvir. Uning ijodida an’ana va yangi davr mavzusi.: miniatyura, tasviri san’at, me’moriy manzara, perspektiva. Nordic_Press, 1(0001).
3. Razzoqova, M. (2024). METHODOLOGY OF ORGANIZATION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Nordic_Press, 3(0003).
4. Shodiboev, S. (2024). Qobiliyat va etika rahbar shaxsining kompetensiyasi sifatida. Tahlil va talqin. Nordic_Press, 2(0002).
5. Berdiyorova, N. (2024). Organizing Innovative Activities in Preschool Educational Institutions. Nordic_Press, 3(0003).